



## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLANING FAOLIYAT VA AXLOQIY RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI

**Jo'rayeva Sayyoraxon Xaliljon qizi**

Qo'qon Davlat Universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Maktabgacha ta'lim) mutaxassisligi magistranti.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning faoliyati va axloqiy rivojlanishining nazariy asoslari yoritilgan. Unda bolalar faoliyatini to'g'ri tashkil etish orqali ularning ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil etiladi. Xususan, o'yin faoliyatining bola shaxsini rivojlantirishdagi yetakchi o'rni, jamoaviy munosabatlarni shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy asosda bayon qilingan. Shuningdek, maqolada O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi doirasida maktabgacha yoshdagi bolalarda zarur ijtimoiy va axloqiy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Integrativ yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etishning mazmuni va uning bola rivojlanishiga ta'siri ochib berilgan. Muallif tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlari orqali ma'naviy-axloqiy tarbiyani samarali tashkil etish yo'llari asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, axloqiy tarbiya, bolalar faoliyati, o'yin faoliyati, integrativ yondashuv, ma'naviy rivojlanish, rivojlanish markazlari, ijtimoiy kompetensiya, pedagogik jarayon, shaxs rivoji, uzluksiz ma'naviy tarbiya, syujetli-rolli o'yinlar, bolalar psixologiyasi.

**Abstract:** This article examines the theoretical foundations of activity and moral development in preschool children. It analyzes the pedagogical possibilities of forming spiritual and moral qualities in children through the proper organization of their activities. In particular, the leading role of play activity in the development of a child's personality and its importance in shaping collective relationships are scientifically substantiated. The article also discusses the issues of gradual development of essential social and moral competencies in preschool children within the framework of the continuous spiritual education concept implemented in the Republic of Uzbekistan. Furthermore, the content of organizing the educational process based on an integrative approach and its impact on child development are revealed. The author substantiates effective ways of organizing moral and ethical education in preschool educational institutions through development centers. The research findings highlight the necessity of comprehensive use of all types of activities in raising well-rounded and harmoniously developed preschool children.

**Keywords:** preschool education, moral education, children's activity, play activity, integrative approach, spiritual development, development centers, social competence, pedagogical process, personality development, continuous spiritual education, role-playing games, child psychology.

O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy munosabatlarni mazmuni yangilanayotgan ayni paytda o‘ziga kelayotgan yosh avlodni faoliyatlarini jarayonida axloqiy tarbiyalashni yangicha asoslarda, bir tomondan, milliy pedagogik qadriyatlarimiz zaminida, ikkinchidan, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda olib borishga ijtimoiy zaruriyat sifatida qaralmoqda. Chunki bolalar faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish ijtimoiy taraqqiyotning manbai, barcha moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarni qondirishning asosiy shart-sharoitidir. Demak, mehnat inson faoliyatining asosiy shakli, kishi hayotining mazmuni, har bir jamiyat a‘zosining vazifasi, shaxs taraqqiyotining asosidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish jarayonida axloqiy tarbiyalash imkoniyatlarini ketma-ketlikda ko‘rib chiqsak. O‘yin bolaga quvonch bag‘ishlaydi, ijobiy his va kechinmalarni, hayotdan olgan taassurotlarini aks ettiradi. O‘yin mazmuni bola shaxsining shakllanishiga muhim ta‘sir ko‘rsatadi. O‘yindan bolalardagi o‘zaro o‘rtoqlik, do‘stlik, bir-biriga yordam ko‘rsatish xislatlarini tarbiyalashda va bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida foydalaniladi. O‘yinlarda katta guruhlarining ishtirok etishi pedagogning oldiga jamoaviy o‘yin malakalarini (kelishib olish, rollar va o‘yinchoqlarni taqsimlash ko‘nikmalari, o‘rtog‘ining muvaffaqiyatidan quvonishi); odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo‘lish, ularga yoqimli va foydali biror narsa qilishni istash va bunga tayyorgarlikni tarbiyalashga alohida e’tibor berishni zarurat qilib qo‘yadi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin hukumat tomonidan milliy qadriyatlar va madaniyatni qayta tiklashga, ta‘lim-tarbiya tizimini isloh qilishga, milliy tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga katta e’tibor qaratildi. Tarbiya milliy qadriyatlarimiz, madaniyatimiz va xalq an‘analari ta‘siri ostida samarali bo‘ladi, ma‘naviy-axloqiy barkamollikka erishiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida ma‘naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish, yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas‘uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, axloqiy kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish ustuvor yo‘nalishlar qatoriga kiritildi va “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasi” da uni amalga oshirish mexanizmlari ko‘rsatib o‘tiladi. Konsepsiyaning maqsadi yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirishdan iborat bo‘lib, unda tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirish uchun ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarni to‘liq yuzaga chiqarishni yangi darajaga ko‘tarish zarurligi aytib o‘tilgan. “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasi”da 3–6 (7) yoshli bolalarni ma‘naviy tarbiyalashning II bosqichida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar o‘z aksini topgan.

Maktabgacha ta‘lim va tarbiya Davlat standartining 1-ilovasi sifatida berilgan “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan “Davlat talablari”da integratsiya tushunchasiga alohida to‘xtalib o‘tilgan va integratsiya – bola ta‘limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta‘minlovchi jarayon ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

“Integratsiya” so‘zi lotincha “integratio” so‘zidan olingan bo‘lib, qayta qurish, tiklash, to‘ldirish (“integr” – to‘liq, butun, yaxlit) degan ma‘noni anglatadi. Shuningdek, boshqa lug‘atlarda “integratsiya” – o‘zaro bog‘langan holda rivojlantirish, “integririvat”

– bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq, deyilsa, sohaviy lug‘atlarda “integratsiya” – o‘qitishning maqsad va omillarini bir butun qilib birlashtirish, deb izohlanadi.

Integrativ yondashuv pedagogik jarayonning xohlagan tarkibiy qismida integratsiya tamoyilini ro‘yobga chiqarishni nazarda tutadi hamda uning bir butunligini va tizimlilikini ta‘minlaydi. Integrativ jarayonlar tizimning alohida elementlarini yoki butun tizimning sifat jihatidan qayta yaratilishi jarayonlaridir.

Integratsiya – bu mashg‘ulotlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog‘liqligidir. Integratsiya jarayoni mashg‘ulotlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda bir-biriga bog‘lash bosqichi bo‘lib, o‘zini yuqori ko‘rinishida namoyon etadi. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, integratsiya jarayoni asoslari uzoq o‘tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda shakllanadigan ma‘naviy-axloqiy sifatlar bevosita ularning yosh va individual xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir; go‘daklik davridan 3–4 yoshgacha bo‘lgan davrda salomlashish, xayrlashish, minnatdorchilik bildirish, yaxshi va yomon to‘g‘risidagi dastlabki tasavvurlar, “mumkin”, “mumkin emas” tushunchalari, ma‘naviy-axloqiy ko‘nikmalari, odatlari, o‘zi tug‘ilib o‘sgan uyi, oila a‘zolariga, atrof-muhitga, mehnatga, insonlarga mehr-muhabbat, kabi dastlabki ma‘naviy-axloqiy sifatlar shakllantirilsa, 5–7 yoshgacha bo‘lgan davrda o‘zi tug‘ilib o‘sgan Vatanga, ota-onasiga, do‘stlariga mehr-muhabbat shakllantiriladi. Intizom, o‘zini tuta bilishlik, kamtarinlik, rostgo‘ylik, saxiylik, axloqiy, insonparvarlik, go‘zallikni his qila olish, turli salbiy tahdidlarga o‘z munosabatini bildira olish, mardlik, shijoat, qat‘iyat, zukkolik, jasorat, go‘zallik, olijanoblik, mehr-shafqat, oriyat kabi yuksak fazilatlarini jamlab olgan ma‘naviy-axloqiy tarbiya tizimi takomillashtiriladi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanish sohalariga integratsion yondashuv asosida ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash jarayoni “Til va nutq”; “Qurish yasash, konstruksiyalash va matematika”; “San‘at”; “Syujetli rolli o‘yinlar va dramalashtirish”; “Ilm-fan va tabiat” rivojlanish markazlarida amalga oshiriladi.

Rivojlanish markazlarida olib boriladigan nutqni rivojlantirish, tasviriy faoliyat, badiiy adabiyot, atrofdagi olam bilan tanishish, tabiat bilan tanishish, elementar matematika va shu kabi mashg‘ulotlar maqsadlariga integratsion yondashish, bola shaxsini shakllanishi, ma‘naviy dunyoqarashining rivojlanishi, axloqiy xulq-atvor malakalarini hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, tasviriy faoliyat jarayonida bola atrof-olamni idrok etadi. Rasm chizish, qurish-yasash, applikatsiya, loy ishiga o‘rgatish, boshqa faoliyat turlari bilan uyg‘unlashtirish bolalarning aqliy, ma‘naviy, estetik va jismoniy rivojlanishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda bolaning rivojlanishi bu faoliyat jarayonida ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishi demakdir. Maktabgacha bolalik davrida o‘ynash bolaning yetakchi faoliyati hisoblanadi. O‘yin davomida bola odamlar tomonidan to‘plangan tajribaga ega bo‘ladi. O‘yin faoliyati bolani rivojlanishning keyingi, yanayam yuqori bosqichiga – maktabda o‘qishga o‘tishga tayyorlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun barcha faoliyat turlari juda katta ahamiyatga ega: ular uchun o‘yin - bu o‘qish, ular uchun o‘yin – bu mehnat, ular uchun o‘yin bu jiddiy tarbiya shaklidir. O‘yinlarning barcha turlari orasida bolani rivojlantirish uchun eng yaxshi ta‘sir etadigani syujetli va rolli o‘yinlardir. Bolalar uchun eng sevimli, eng

kerakli o‘yinlar - bu shunday o‘yinlarki, unda bolalar o‘zlari o‘yin maqsadini belgilaydi. Bular: uy qurish, maktabga borish, tushlik qilish... O‘yin jarayoni ushbu maqsadga erishishdan iboratdir: bola reja tuzadi, amalga oshirish usullarini tanlaydi. U minadigan poezd stullardan qurilgan bo‘lsin, uy yog‘och chipslardan qurilsin, lekin gap bunda emas, bolaning tasavvurlari haqiqatni to‘ldiradi; bu yerda reja tuzish jarayonining o‘zi juda muhimdir.

O‘yin faoliyatida bolaning kattalar hayotida ishtirok etish zarurati amalga oshiriladi. O‘yin bu bolalar tomonidan o‘zlarining zimmasiga olgan rollari yordamida va turli o‘yin predmetlaridan foydalangan holda katta insonlarning faoliyatini va ularning munosabatlarini aks ettirishdir. O‘yinlar davomida "ba'zi sharoitlarda kattalar tomonidan bajariladigan har qanday haqiqiy harakatlar bola tomonidan boshqa, o‘yin sharoitida takrorlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2019). *Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qaror*. Toshkent.
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. (2020). *Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari*. Toshkent.
3. Karimov I.A. (2008). *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: Ma’naviyat.
4. Mirziyoyev Sh.M. (2020). *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. Toshkent: O‘zbekiston.
5. Vygotsky L.S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge: Harvard University Press.
6. Elkonin D.B. (1989). *Psixologiya igry*. Moskva: Pedagogika.
7. Leontyev A.N. (1975). *Faoliyat, ong va shaxs*. Moskva: Politizdat.
8. Bojovich L.I. (1968). *Shaxs va uning bolalik davridagi shakllanishi*. Moskva: Prosveshcheniye.
9. Montessori M. (1967). *The Discovery of the Child*. New York: Ballantine Books.
10. Piaget J. (1962). *Play, Dreams and Imitation in Childhood*. New York: Norton.
11. Davletshin M.G. (2002). *Umumiy psixologiya*. Toshkent: O‘qituvchi.
12. To‘xtaxo‘jayeva M.X. (2015). *Maktabgacha pedagogika*. Toshkent: Fan va texnologiya.
13. Qodirova F.R. (2018). *Maktabgacha ta’lim metodikasi*. Toshkent: Innovatsiya.
14. Ishmuhamedov R.J. (2017). *Ta’limda innovatsion texnologiyalar*. Toshkent: Iqtisodiyot.